

## DIN, AQL VA ERKINLIK UYG‘UNLIGI: MADANIYATLARARO TUSHUNISH VA ADOLATLI GLOBAL TARTIB



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-175-178>

*Abduraximova Dilaram Abdukarimovna*  
TDSHU  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XXI asrda insoniyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan din, aql va erkinlik uyg‘unligi masalasi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada Sayid Muhammad Xotaming “Sivilizatsiyalar muloqoti” konsepsiyasi asosida madaniyatlararo tushunish, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot va adolatli global tartibni shakllantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, dinni aqlga qarshi qo‘yish yoki erkinlikni ma’naviyatdan ajratish kabi qarashlarning salbiy oqibatlarini tahlil qilinib, haqiqiy taraqqiyot din, aql va erkinlikning o‘zaro uyg‘unligi asosida ta’minlanishi asoslab beriladi. Xotaming “Ikki kitob” konsepsiyasi – Tabiat kitobi va Ilohiy Vaxiy orqali inson aqliy bilimining ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro hurmat, madaniy xilma-xillikni tan olish va adolat tamoyillari barqaror global tartibning muhim asoslari sifatida talqin etiladi.

**Kalit so‘zlar:** din, aql, erkinlik, sivilizatsiyalar muloqoti, madaniyatlararo tushunish, global tartib, adolat, ma’naviyat, plyuralizm.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается философский анализ проблемы гармонии религии, разума и свободы как одного из важнейших условий устойчивого развития человеческой цивилизации в XXI веке. На основе концепции «Диалог цивилизаций», предложенной Сайидом Мухаммадом Хатами, анализируются вопросы межкультурного взаимопонимания, взаимодействия цивилизаций и формирования справедливого глобального порядка. В статье также рассматриваются негативные последствия противопоставления религии разуму и отделения свободы от духовных ценностей. Обосновывается, что подлинный прогресс возможен только при гармоничном сочетании религии, разума и свободы. Особое внимание уделяется концепции Хатами «двух книг» — Книги природы и Божественного откровения, которые постигаются человеком посредством разума. Подчеркивается, что межкультурный диалог, взаимное уважение, признание культурного разнообразия и принцип справедливости являются важными основами формирования устойчивого и справедливого глобального порядка.

**Ключевые слова:** религия, разум, свобода, диалог цивилизаций, межкультурное взаимопонимание, глобальный порядок, справедливость, духовность, плюрализм.

**Annotation:** This article provides a philosophical analysis of the harmony of religion, reason, and freedom as one of the essential conditions for the sustainable

*development of human civilization in the 21st century. Based on the concept of the “Dialogue among Civilizations” proposed by Sayyid Muhammad Khatami, the study examines issues of intercultural understanding, interaction among civilizations, and the formation of a just global order. The article also analyzes the negative consequences of opposing religion to reason and separating freedom from spiritual values. It argues that genuine progress can only be achieved through the harmonious integration of religion, reason, and freedom. Particular attention is given to Khatami’s concept of the “two books” — the Book of Nature and the Divine Revelation — both of which are understood by human beings through reason. The study emphasizes that civilizational dialogue, mutual respect, recognition of cultural diversity, and the principle of justice are essential foundations for establishing a stable and just global order.*

**Keywords:** religion, reason, freedom, dialogue among civilizations, intercultural understanding, global order, justice, spirituality, pluralism.

## **KIRISH**

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng katta ma’naviy va ijtimoiy vazifalardan biri din, aql va erkinlik uyg’unligi asosida barqaror va adolatli jahon tartibini barpo etish va sivilizatsiyalar o’rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish, o’zaro tushunishni kuchaytirish va adolatli global tartibni shakllantirishdir. Globallashuv jarayonlari, madaniy xilma-xillik va sivilizatsiyalararo muloqot masalalari shu bugungi kunda davlatlar, millatlar va madaniyatlar taqdiri uchun hal qiluvchi muhim ahamiyat kasb etadi.

## **ASOSIY QISM**

Sayid Muhammad Xotami tomonidan ilgari surilgan “Sivilizatsiyalar muloqoti” konsepsiyasi aynan shu g’oyaga asoslanadi. Uning fikricha, zamonaviy dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun xalqlar va madaniyatlar o’rtasida muloqotni kuchaytirish, bir-birini tushunish va o’zaro hurmat tamoyillarini qaror toptirish zarur. Zamonaviy dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun madaniyatlar o’rtasida muloqotni kuchaytirish, bir-birini tushunish va o’zaro hurmat tamoyillarini qaror toptirish zarur. Din, aql va erkinlik o’zaro qarama-qarshi tushunchalar emas, balki inson sivilizatsiyasining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi bir-birini to’ldiruvchi omillardir.

Dinni aqlga qarshi qo’yish – tarixiy xatolardan biri hisoblanadi. . Ayrim qarashlarga ko’ra, din mavjud bo’lgan joyda aqlga ehtiyoj yo’q, deb hisoblangan. Ammo bu fikr noto’g’ri hisoblanadi. Chunki dinni anglashning o’zi ham aqliy tafakkur orqali amalga oshadi. Xotami ta’kidlaganidek, dindor inson ham, dinsiz inson ham aqldan foydalanadi. Urta asrlarda din ko’p hollarda erkinlik va aqlga qarshi qo’yilgan, natijada ham din, ham ilm zarar ko’rgan. Shu bilan birga, zamonaviy liberal jamiyatlarda erkinlik ma’naviy qadriyatlardan ajratib qo’yilgan. Xotamiy fikriga ko’ra, haqiqiy taraqqiyot uchun din, aql va erkinlik uyg’unligi zarur.

Xotaming “ikki kitob” konsepsiyasi shu uyg’unlikning nazariy poydevori hisoblanadi: birinchi kitob – Tabiat kitobi, uni inson aql orqali o’rganadi; ikkinchi

kitob – Ilohiy Vaxiy, uni ham inson faqat aql orqali anglay oladi. Shuningdek, erkinliksiz din – qullikka aylanadi, ma’naviyatsiz erkinlik esa qadriyatsiz qoladi.

Svilizatsiyalararo muloqot g‘oyasi Xotaming xalqaro miqyosidagi eng muhim tashabbuslaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, madaniy muloqot tenglik, o‘zaro hurmat va anglashga asoslanishi kerak. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, islom olami G‘arb madaniyati va fanining rivojida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Madaniyatlararo tushunishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: avvalo, tinglash va tushunish madaniyatini shakllantirish; ikkinchidan, madaniy va diniy xilma-xillikni qabul qilish; uchinchidan, bahs va mulohazani taraqqiyot vositasi sifatida ko‘rish. Shu orqali turli madaniyatlar o‘rtasida ishonch, tinchlik va hamjihatlikka erishish mumkin.

Xotaming konsepsiyasida yangi jahon tartibi plyuralizm va adolatga asoslanishi zarur. Unda har bir millat va davlat o‘z o‘rnini topishi, mustamlakachilik merosi bartaraf etilishi kerak. Adolatli global tartib inson huquqlariga hurmat, madaniy muloqot va o‘zaro hamkorlik asosida qaror topadi.

Xotamiy ta’kidlaydiki, global barqarorlik uchun islom sivilizatsiyasi yangi uyg‘onish bosqichiga chiqishi lozim. Bu uyg‘onish din, aql va erkinlik uyg‘unligi asosida amalga oshirilgandagina insoniyatga haqiqiy tinchlik, barqarorlik va adolatni taqdim eta oladi. Inson sivilizatsiyasi rivojida erkinlik muhim o‘rin tutadi. Biroq erkinlik ma’naviyatdan ajralsa, u ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xotami fikricha, din va erkinlikni bir-biriga qarshi qo‘yish katta xato hisoblanadi. Erkinliksiz din inson qadr-qimmatini cheklaydi, dinsiz erkinlik esa ma’naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Shu sababli din, aql va erkinlik bir-birini mustahkamlovchi omillar sifatida qaralishi lozim. Bunday uyg‘unlik: inson huquqlarini himoya qiladi adolatli jamiyatni shakllantiradi madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqdi. Biroq bu jarayon ko‘pincha ziddiyatlar, siyosiy qarama-qarshiliklar va madaniy tushunmovchiliklar bilan ham kuzatiladi.

Xotaming fikricha, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: xalqlar va davlatlar tengligi, o‘zaro hurmat fikrlar xilma-xilligini qabul qilish zo‘ravonlikdan voz kechishdir.

### **XULOSA**

Xotaming din, aql va erkinlik uyg‘unligiga asoslangan qarashlari XXI asrda madaniyatlararo muloqot va global tinchlikni ta’minlashda sivilizatsiyani barqaror rivojlanishida muhim metodologik yo‘l xaritasi sifatida xizmat qiladi. Bu uch omil o‘zaro muvofiqlashgan holda amal qilganda, jamiyatda adolat, tinchlik va ma’naviy taraqqiyot ta’minlanadi. Adolatli global tartib faqat ma’naviy asoslarda barpo etilishi mumkin, chunki ma’naviyatsiz erkinlik ham, aqlsiz din ham insoniyatni barqarorlikka olib bora olmaydi.

Sayid Muhammad Xotaming “Sivilizatsiyalar muloqoti” konsepsiyasi madaniyatlararo tushunishni kuchaytirish va adolatli global tartibni shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Insoniyatning kelajagi madaniyatlar to‘qnashuvida emas, balki sivilizatsiyalar muloqotida namoyon bo‘ladi. Din, aql va erkinlik uyg‘unligi – madaniyatlararo tushunish va adolatli global tartibning falsafiy asosidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyev. Toshkent 2024. Xozirgi zamon va Yangi Uzbekiston
2. Shavkat Mirziyev. Toshkent 2024. Bir bulsak yagona xalkmiz birlashsak Vatanmiz.
3. Toffler, A. (1980). The Third Wave. William Morrow and Company.
4. Toffler, A. (1970). Future Shock. Random House.
5. Khatami, S. M. (2000). Dialogue Among Civilizations. United Nations Publications.
6. Toffler A. Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century. – New York: Bantam Books, 1990.
7. Khatami S. M. “Sivilizatsiyalar muloqoti” Olmota 2002